

## INNIVATION FAOLIYATNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Mardonova Umida Norqulovna**

*Buxoro viloyat Kogon shahar 18-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori*

**Annotatsiya:** *ta'lim-tarbiya sohasida pedagogik va innovatsion texnologiyani qo'llash hamda uning samaradorligi ta'hlil qilingan, natijalar va boshqa farqlar ko'rsatilgan holda uning maqsad, vazifalari hamda ta'limdagi yutuqlarini ko'rsatib berishga harakat qilingan*

**Kalit so'zlar:** *pedagogika, pedagogik texnologiya, innovatsiya, ta'lim islohotlari, o'quv jarayoni, o'quvchi va o'qituvchi faoliyati, uzluksiz ta'lim, qiziqtirish, innovatsiyalarni boshqarish, nazorat qilish, o'zgarishlar mexanizmi*

**Annotation:** *There is analyzed in the article implementation of pedagogical and innovative technologies in education. Attempts are made to demonstrate its goals, objectives and achievements in education, as well as results and other specifics*

**Key words:** *pedagogical, pedagogical technology, innovation, educational reforms, the learning process, teacher and student activities, continuous education, interest, innovation management, control, mechanisms of change*

**Аннотация:** *В статье анализируются использование и эффективность педагогических и инновационных технологий в образовании, предпринимаются попытки продемонстрировать их цели, задачи и достижения в образовании, а также результаты*

**Ключевые слова:** *педагогика, педагогическая технология, инновация, реформы в образовании, процесс обучения, деятельность учителя и ученика, непрерывное образование, заинтересованность, управление инновациями, контроль, механизмы перемен*

### KIRISH

O'zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi inson va uning manfaatlari, uning xavfsizligi va farovonligini ta'minlash hamda barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgandir.

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyingi qisqa vaqt ichida bosib o'tgan taraqqiyot yo'li asrlarga arzigulik mazmun va mohiyat kasb etmoqda. Ma'lumki, taraqqiyotni harakatga keltirishda va turmushda ro'y berayotgan jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazishda jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy ma'naviy yangilanishining muhim subyekti bo'lgan yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalash muhim masalasi ahamiyatga ega.

Muhokama va natijalar

Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda yoshlarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelinganligi ma'lum. Bunday usul yoshlarda mustaqil fikrlash, ishlash, ijodiy izlanish, tashabbus ko'rsatish qobiliyatlarini rivojlantirishga katta imkon bermasligi aniq. Endilikda fan, texnika va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi natijasida o'quv-tarbiya jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan

foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar egallanayotgan bilimlarni yoshlar tomonidan o'zlari qidirib topishlari, mustaqil o'rganib, ularni tahlil qilishlari, o'z bilimlarini baholashlari, to'g'ri xulosalar chiqarishga qaratilgan. O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari ofitserlarining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilanish, yangilikni o'zgartirish demakdir. Interfaol («Inter» - bu o'zaro, «ast» - harakat qilmoq) - o'zaro harakat qilish (yoki kim bilandir suhbatda, muloqotda bo'lish)ni anglatadi. Interfaol ta'lim, interfaol uslublar muntazam muloqotga asoslangan uslublar tizimi bo'lib, yoshlarning hamkorlikdagi va faol ishtirokidagi ta'lim va uslublar tizimi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, o'qitishning interfaol uslublari - bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari ofitserlari va shaxsiy tarkibning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya — bu aniq, ketma-ketlikdagi yaxlit pedagogik jarayon bo'lib, yoshlarning ehtiyojidan va texnik imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyhalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishilishi uchun hamkorlikdagi faoliyat, qo'yilgan maqsad, tanlagan mazmun, uslub, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq.

Ta'limning bugungi vazifalaridan yana biri o'qituvchilarga metodik yordam berib, ularni zamonaviy bilim berish bilan qurollantirish zarur. Buning uchun, xususan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llaniladigan metodlar, vositalar ni mazmunan yangilash, to'ldirish, innovatsion texnologiyalarga oid metodik qo'llanmalar, tavsiyalar yaratish, bu orqali ta'limda samaradorlikka erishish yo'llarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Ilmiy adabiyotlar, nazariy tadqiqotlar, tajribalarni o'rganish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini kuzatish va tahlil qilish, pedagoglar bilan o'tkazilgan anketa so'rovnomalari, suhbatlar, seminarlar natijasida tarbiyachilarning kasbiy pedagogik faoliyatida bir qator ziddiyatlarning mavjudligi aniq landi: ishida qiyinchilik sezayotgan, kam pedagogik stajga ega tarbiyachilarga ilmiy-metodik yordam ko'rsatish zarur. tarbiyachilarning umumiy kasbiy-pedagogik madaniyat darajasini oshirish, tarbiyachilarning o'zini mashg'ulot jarayonida AKT dan va internetdan foydalanishga o'rgatish, faoliyat markazlarida ko'rgazmali materiallar, axborot vositalari bilan boyitish davr talabiga mos keladigan yangi o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratish, pedagogik jamoa fikrlari asosida yangi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish kerak.

- ta'lim muassasalaridagi tarbiyachilarning ish davridagi innovatsion faoliyati talabga to'liq javob bermayapti;
- mashg'ulotlarni chuqurlashtirib o'qitish natijasida bolalarning tez toliqishi;
- dastur talablarni bajarish uchun kerakli jixozlarni yetarli emasligi.

Mazkur omillar tarbiyachilarning sifatli mashgulot utishiga salbiy ta'sir etmoqda. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali samaradorlikka erishish yo'llari metodik jihatdan asoslanmagan, uning mazmuni, vositalari, shakllari yaxlit tizim sifatida ishlab chiqilmagan va amaliyotga to'liq joriy etilmagan.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun ta'lim jarayonida pedagoglarni yangi pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan o'qitishni tashkil etish, o'qitishni yangi metod, shakl va vositalar bilan boyitish; pedagogika Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchi va tarbiyachi faoliyatidagi o'zgarish, yangilik kiritish, o'quv jarayonida interfaol metodlardan to'liq foydalanishni o'z ichiga olsa, vositalari esa bolaning tarbiyachi bilan birgalikdagi faoliyati orqali ta'lim mazmuniga ta'sir ko'rsatadigan vositalarni o'z ichiga oladi. Bunday usullarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat tarbiyalanuvchi va pedagoglarning birgalikdagi faoliyat ko'rsatishi orqali amal ga oshiriladi. Bunday hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Bunda:

- bolalarning mashg'ulot davomida befarq bo'lmasligi, mustaqil fikrlashi, ijod qilishi va izlanishi uchun keng imkoniyat yaratiladi;

- ularning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlari davo miyligi ta'minlanadi;

- o'quvchilarning bilimga bo'lgan intilishlari mustaqil, har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytiriladi;

- ularning hamkorlikdagi faoliyati doi miy holda tashkil etiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion ta'limni rivojlantirish va takomillashtirish sohasi bo'yicha juda ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. Bularga mashg'ulotda ta'lim-tarbiyani hamkorlikda, mustaqil ravishda olib borish, Internet tarmoqlari, kompyuter, interaktiv elektron doska, multimedia, elektron darsliklar, elektron variantdagi testlardan foydalanib, ta'lim samara dorligiga erishish mumkin. Innovatsion mashg'ulot turlari ko'p bo'lib, ular mashgulot mavzusining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishli tayyorgarlik ko'riladi. Innovatsion mashg'ulotda ishtirok etish uchun bolalarning tayyorliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi. Bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalari va boshqalar. Mashg'ulotda vaqtdan unumli foydalanish va zarur vositalarni to'g'ri tanlash, mashg'ulot turi aniq belgilangan bo'lishi lozim.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yangi innovatsion ta'limni ta'lim-tarbiya jarayoniga olib kirish davr talabidir. Bu ish pedagogga bog'liq. O'qituvchi ijodkor bo'lishi, yangi pedagogik texnologiyalarning xilma-xil shakllari, usullarini yaratib borishi, ularni ta'lim jarayonida mahorat bilan qo'llab borishi va undan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar berilmoqda:

- har qanday foydalaniladigan innovasion yoki pedagogik texnologiya albatta ta’lim mazmuniga mos va uning o‘zlashtirishga qo‘shadigan samarasi yuqori bo‘lishi kerak;
- foydalaniladigan barcha texnologiyalar bola yoshiga mos va uning qiziqishi, diqqatini jalb qila oladigan bo‘lishi zarur;
- har qanday pedagogik texnologiyalar ta’lim mazmunini o‘zlashtirishga yordam beradigan imkoniyatlarga ega bo‘lishi va talabada yaxshi taassurot qoldiradigan bo‘lishi shart.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat - T.: TDPU, Nizomiy, 2003.
2. Avliyoqulov N. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari.-T., 2001.
3. Bershadskiy M.YE. V kakix znacheniyax ispolzuetsya ponyatiye “texnologiya” v pedagogicheskoy literature?//Shkolniye texnologii.-2002.- №1.
4. Bepalko V.P. Slagayemiye pedagogicheskoy texnologii. - M.: Pedagogika, 1989.
5. Bogolyubov V.I. Evolyusiya pedagogicheskix texnologiy //Shkolniye texnologii - 2004.
6. Golish L.V. Texnologii obucheniya na leksiyax i seminarax: Uchebnoye posobiye //Pod obsh. red. akad. S.S. Gulyamova. - T.: TGEU, 2005.
7. Yepisheva O.B. Osnovniye parametri texnologii obucheniya. //Shkolniye texnologii - 2004.
8. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. T.: O‘qituvchi, 2004.
9. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse. Analiz zarubejnogo opita.- M.: Znaniye, 1989 / Novoye v jizni, nauke, texnike. Ser. “Pedagogika i psixologiya”.
10. Kushnir A.M. Metodicheskiy plyuralizm. //Shkolniye texnologii.- 2004.
11. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi, 2000.
12. Selevko G.K. Sovremenniye obrazovatelniye texnologii: Uchebnoye posobiye. - M.: Narodnoye obrazovaniye, 1998.
13. Saidaxmedov N.S. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash namunalari. - T.: RTM, 2000.
14. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - T.: Fan, 2005.